
Yoshlar muammolari bilan ishlash ustuvor vazifamiz

Aholi, ayniqsa, yoshlar muammolari bilan ishlash, ularning murojaat va takliflarini tinglash hamda ijobiy yechimini topish masalasi bugungi kunda har bir rahbarning birinchi galdagi vazifasiga aylanmoqda. Bu borada Rishton tumanida ham tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, sektor rahbarlari tomonidan sayyor qabul va uchrashuvlar tashkil etib borilyapti.

Bugun 1-sektor rahbari tuman hokimi S. Soliev "Nosgar" mahallasida yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi. Sayyor qabul shaklida tashkil etilgan uchrashuvda 15 dan ortiq yoshlar va aholi vakillari, aloqador tuman tashkilotlari rahbarlari va 1-sektor shtabi a'zolari ishtirok etishdi.

Yoshlar tomonidan 8 ta turli maslada bildirilgan murojaatlarning 3 tasi shu joyning o'zida ijobiy hal etildi. 3 ta murojaatga huquqiy tushuntirish berildi va ijrosi muddat etadigan 2 ta murojaatga muddat belgilanib, mas'ullarga yo'naltirildi. Muddat belgilangan murojaatlar ijrosi 1-sektor shtabi tomonidan nazoratga olindi.

2022-08-05 19:00:52